https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Damirova Sitorabonu Bahodirovna
Samarqand davlat chet tillar institute
Kechki ta'lim fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili 3-kurs talabasi

O'ZBEK INTERNET MEMLARINING YOSHLAR NUTQIGA TA'SIRI (LINGVISTIK VA PRAGMATIK TAHLIL)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek internet memlari zamonaviy lingvomadaniy hodisa sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida tanlangan mem rasmlar asosida ularning leksik, stilistik, pragmatik va sotsiolingvistik xususiyatlari o'rganildi. Asosiy e'tibor memlarning yoshlar nutqiga ko'rsatadigan ta'siriga qaratilib, xususan kinoya, metafora va tayyor mem-qolipli iboralarning kundalik og'zaki muloqotda qo'llanishi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari internet memlari yoshlar nutqida qisqa, ifodali va yumoristik nutq shakllarining shakllanishida muhim omil ekanini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: internet memlari, yoshlar nutqi, raqamli diskurs, o'zbek tili, pragmatika, metafora, kinoya.

ANNOTATION

This article examines Uzbek internet memes as a modern linguistic and cultural phenomenon. Based on the analysis of selected meme images, their lexical, stylistic, pragmatic, and sociolinguistic features are studied. The research focuses on how memes influence young people's speech, particularly through the use of irony, metaphor, and fixed meme-based expressions. The findings show that internet memes play a significant role in shaping youth communication by promoting concise, expressive, and humorous forms of language within digital discourse.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Keywords: internet memes, youth language, digital discourse, Uzbek language, pragmatics, metaphor, irony.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются узбекские интернет-мемы как современное лингвокультурное явление. На основе анализа отдельных мем-изображений исследуются их лексические, стилистические, прагматические и социолингвистические особенности. Основное внимание уделяется влиянию мемов на речь молодежи, в частности использованию иронии, метафоры и устойчивых мемных выражений. Результаты исследования показывают, что интернет-мемы играют важную роль в формировании молодежной коммуникации, способствуя развитию краткой, выразительной и юмористической формы речи в цифровом пространстве.

Ключевые слова: интернет-мемы, молодежная речь, цифровой дискурс, узбекский язык, прагматика, метафора, ирония.

KIRISH

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi natijasida muloqotning yangi shakllari vujudga keldi. Ushbu jarayonda internet memlari zamonaviy kommunikatsiyaning muhim vositalaridan biriga aylanib, axborotni tezkor, qisqa va kulgili shaklda yetkazish imkonini bermoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida memlar nafaqat ko‘ngilochar mazmun kasb etib, balki kundalik nutq va fikrlash tarziga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgan lingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Internet memlari vizual va verbal unsurlarning uyg‘unligi asosida shakllanib, ma’lum ijtimoiy, madaniy va tilga oid mazmunni o‘zida mujassamlashtiradi. Ular orqali kinoya, istehzo, metafora va umumlashtirish kabi stilistik vositalar faol qo‘llaniladi. Natijada memlar oddiy rasm yoki hazildan chiqib, jamiyatdagi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

muayyan qarashlar, stereotiplar va kundalik tajribalarni aks ettiruvchi diskursiv birlikka aylanadi.

O‘zbek internet makonida ham memlar keng tarqalib, yoshlar nutqida tayyor qolipli iboralar, qisqartmalar va kinoyaviy ifodalarning ommalashishiga sabab bo‘lmoqda. Biroq mazkur hodisa hali tilshunoslik nuqtayi nazaridan yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Shu bois internet memlarining yoshlar nutqiga ta’sirini lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek internet memlarini zamonaviy raqamli diskurs doirasida tahlil qilish hamda ularning yoshlar nutqiga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida mem rasmlarining leksik, stilistik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning og‘zaki va yozma muloqotdagi o‘rni yoritiladi.



1-rasm.[1] Rasmda ayollar va erkaklarning turli fasllarda kiyadigan poyabzallari qiyosiy tarzda tasvirlangan. Ayollar uchun har faslda turli poyabzallar, erkaklar uchun esa barcha fasllarda deyarli bir xil sport oyoq kiyimi ko‘rsatilgan.

[1] https://youtube.com/watch?v=upjzerkvG6c&si=ZagN6-TSN6dwmzFo

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mazkur mem o‘zbek internet makonida keng tarqalgan gender stereotiplariga asoslangan kulgili tasvirlardan biridir. Mem matni “Ayollar nima kiyishadi” va “Erkaklar nima kiyishadi” kabi parallel sintaktik konstruktsiyalar orqali tuzilgan bo‘lib, bu qarama-qarshilik ya’ni kulgi effektini kuchaytiradi.

Leksik jihatdan memda oddiy va kundalik nutqqa xos birliklar qo‘llanilgan. “Qishda”, “Bahorda”, “Yozda”, “Kuzda” kabi vaqt bildiruvchi so‘zlarning takroriy ishlatilishi memning tuzilishini soddalashtirib, mazmunni tez anglash imkonini beradi. Bu takror memlarda keng qo‘llaniladigan stilistik usul bo‘lib, vizual va matniy uyg‘unlikni ta’minlaydi.Stilistik nuqtayi nazardan mem kinoya va umumlashtirishga asoslangan. Ayollar kiyimi fasllarga qarab xilma-xil tarzda, erkaklar kiyimi esa deyarli o‘zgarmas holatda ko‘rsatiladi. Bu orqali mem muallifi ijtimoiy stereotipni kulgili shaklda ifodalaydi. Mazkur kinoyaviy yondashuv memning asosiy pragmatik vazifasini auditoriyani kuldirish va umumiy tajribaga tayangan holda tez tushunilishini ta’minlaydi.Pragmatik jihatdan mem kontekstga tayanadi. Tomoshabin bu tasvirni to‘liq anglash uchun jamiyatda mavjud bo‘lgan “erkaklar oddiylikni tanlaydi, ayollar esa xilma-xillikka e’tibor beradi” degan qarashlardan xabardor bo‘lishi kerak. Aynan shu umumiy bilim memning kommunikativ samaradorligini oshiradi.Lingvomadaniy jihatdan mem o‘zbek jamiyatida keng tarqalgan kundalik qarashlarni aks ettiradi va ularni tanqidiy emas, balki yumor orqali yoritadi. Shu sababli mazkur mem nafaqat ko‘ngilochar material, balki jamiyatdagi gender tasavvurlarni aks ettiruvchi madaniy matn sifatida ham baholash mumkin.

2-rasm.[2] Rasmda uchta predmet tasvirlangan: sichqonqon, yirtqich tuzoq va uzuk solinadigan quti.

Mazkur mem metaforik tasvir va kinoyaga asoslangan bo‘lib, bir xil maqsadga xizmat qiluvchi, ammo tashqi ko‘rinishi turlicha bo‘lgan predmetlarni qiyoslash orqali kulgili effekt hosil qiladi. Mem matnida qo‘llanilgan “Maqsad bir xil, dizayn boshqacha” jumlasi qisqa, sodda va umumlashma xarakterga ega bo‘lib, rasm

[2] https://youtube.com/watch?v=upjzerkvG6c&si=ZagN6-TSN6dwmzFo

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mazmunini to‘liq ochib beradi.

Leksik jihatdan memda kundalik nutqqa xos oddiy so‘zlar tanlangan. “Maqsad”, “bir xil”, “dizayn”, “boshqacha” kabi so‘zlar keng auditoriya uchun tushunarli bo‘lib, memning tez anglashilishini ta’minlaydi. Jumlaning qisqaligi va aniqligi internet memlariga xos bo‘lgan minimalizm prinsipini aks ettiradi.

Stilistik jihatdan mem kinoya va metaforaga asoslanadi. Sichqonqop va yirtqich tuzoq xavf va majburiyatni ifodalasa, uzuk solinadigan quti romantik va ijobiy ma’noga ega. Ushbu qarama-qarshilik orqali mem muallifi nikoh yoki jiddiy munosabatlar haqidagi ijtimoiy qarashlarni yumor orqali ifodalaydi. Kulgi aynan mazmun va vizual tasvirlar o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilikdan yuzaga keladi.

Pragmatik nuqtayi nazardan mem kontekstga kuchli tayanadi. Tomoshabin memni to‘liq tushunishi uchun jamiyatda mavjud bo‘lgan “nikoh — majburiyat” degan yashirin stereotipdan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

Lingvomadaniy jihatdan mazkur mem o‘zbek jamiyatida keng tarqalgan oilaviy munosabatlarga doir qarashlarni aks ettiradi. U ochiq tanqid emas, balki yumor orqali berilgan ijtimoiy mulohaza bo‘lib, shu sababli keng auditoriya tomonidan qabul qilinadi va omma orasida tez tarqalgan yumorlardan hisoblanad

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



3-rasm[3].Rasmda uch nafar mashhur kino aktyorining turli rollardagi jiddiy, ta’sirchan obrazlari va ularga qarama-qarshi tarzda jamoat transportida oddiy hayotiy vaziyat aks etgan sahna tasvirlangan.

Mazkur mem kontrast asosida qurilgan bo‘lib, mashhur aktyorlarning filmlardagi kuchli, dramatik va jiddiy obrazlari bilan kundalik hayotda uchraydigan oddiy, hattoki kulgili vaziyatni qiyoslaydi. Ushbu qarama-qarshilik orqali mem kulgili effekt hosil qilagan va “aktyorlik” tushunchasini kengroq, kinoyaviy ma’noda talqin qilagan..Memdagi asosiy g‘oya shundan iboratki, aktyorlik faqat sahna yoki ekran bilan cheklanmaydi, balki kundalik hayotda ham odamlar turli rollarni “ijro etishadi”.

Leksik jihatdan memda sodda va ommabop so‘zlar qo‘llangan: “dunyo”, “eng kuchli”, “aktyorlar”. Ushbu so‘zlar keng auditoriya uchun tushunarli bo‘lib,

[3] https://t.me/Kulgili_RasmlarTv

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

murakkab izoh talab qilmaydi. “Eng kuchli” birikmasi bo‘rttirish (giperbola) vazifasini bajarib, memning kinoyaviy ohangini kuchaytiradi.

Stilistik jihatdan mem kinoya va ironiyaga asoslangan. Yuqoridagi yozuv jiddiy mazmunda bo‘lsa-da, pastdagi tasvirlar bu jiddiylikni inkor etib, kulgili vaziyatni yuzaga chiqaradi. Vizual kontrast — mashhur aktyorlarning dramatik obrazlari va oddiy transportdagi holat — memning asosiy stilistik vositasi hisoblanadi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, mem tomoshabinning hayotiy tajribasiga tayanadi. Jamoat transportida uchraydigan “o‘zini uxlayotgandek tutish”, “holatni yashirish” kabi vaziyatlar ko‘pchilikka tanish. Shu sababli mem tez anglashiladi va kuchli kulgili ta’sir uyg‘otadi.

Lingvomadaniy jihatdan mem zamonaviy o‘zbek jamiyatida kundalik hayot, jamoat transporti va ijtimoiy rollar bilan bog‘liq qarashlarni aks ettiradi. U ochiq tanqid emas, balki yumor orqali berilgan ijtimoiy kuzatuv bo‘lib, shu bois keng auditoriya tomonidan oson qabul qilinadi.

Mem atamasining kelib chiqishi

“Mem” atamasi ilk bor 1976-yilda ingliz evolyutsion biologi Richard Dokinz tomonidan “The Selfish Gene” (“Xudbin gen”) nomli ilmiy asarida qo‘llanilgan. Dokinz bu tushunchani biologiyadagi gen tushunchasiga qiyos sifatida kiritgan. Uning fikricha, genlar biologik axborotni qanday uzatsa, memlar ham madaniy axborotni shunday uzatadi.

“Atama yunoncha mimema — “taqlid qilingan narsa” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u g‘oya, xatti-harakat, ramz yoki axborotning odamdan odamga taqlid orqali tarqalishini anglatadi.”Dokinzning fikriga ko‘ra, mem — bu: madaniy axborot birligi, taqlid orqali tarqaladigan, vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradigan, raqobatlashadigan va ayrimlari ommalashadigan, boshqalari esa yo‘qolib ketadigan axborot vositasidir.Masalan, maqollar, urf-odatlar, kiyinish uslublari, qo‘shiqlar yoki iboralar mem sifatida qaralishi mumkin.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mem tushunchasi asosida keyinchalik memetika deb ataluvchi yo‘nalish shakllandi. Memetika — madaniy g‘oyalar va axborotning jamiyatda qanday paydo bo‘lishi, tarqalishi va rivojlanishini o‘rganadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra:

1)jamiyatdagi g‘oyalar tirik organizmlar kabi “evolyutsiyalanadi”;

2)eng moslashuvchan va tushunarli memlar uzoq yashaydi;

3)ommaviy ongga mos kelmagan memlar tez yo‘qoladi.

Internet memlarining paydo bo‘lishi

1990–2000-yillardan boshlab internet keng ommalashishi bilan internet memlari tushunchasi paydo bo‘ldi. Internet memlari an’anaviy memlardan farqli ravishda juda tez tarqaladi, vizual (rasm, gif), audio yoki video shaklda bo‘ladi, ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaga yetib boradi foydalanuvchilar tomonidan o‘zgartiriladi ya’ni remiks qilinadi.

Internet memlari ko‘pincha kulgili bo‘lsa-da, ular orqali ijtimoiy muammolar, siyosiy munosabatlar, yoshlar madaniyati, tanqid va kinoya ifodalanadi.

Bugungi kunda memlar ommaviy axborot vositalari, reklama va marketing,siyosiy kommunikatsiya, yoshlar til va tafakkurining muhim qismiga aylangan.

Memlar jamiyat kayfiyatini tez va aniq ifodalash imkonini beruvchi vosita sifatida baholanadi.

Internet memlari bo‘yicha so‘nggi ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili

Zamonaviy tadqiqotlar memlarni faqat hazil yoki ko‘ngilochar kontent sifatida emas, balki ijtimoiy muloqot, madaniy identifikatsiya va farqlanish vositasi deb ko‘rmoqda. Masalan, 2025-yilda chop etilgan bir maqolada Xitoylik olimlar memlar yoshlar orasida kommunikatsiya, ijtimoiy ong va qadriyatlarni shakllantirishda qanday rol o‘ynashi tahlil qilingan. Ular memlarning ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishi bilan birga, noaniqlik va xato talqinlar orqali salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkinligini ta’kidlashgan.[4]

2025-yilda nashr etilgan boshqa bir tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, xorijda o‘qiyotgan talabalar internet memlaridan madaniyatlararo moslashuv va shaxsiy

[4] Zhang, Qing. Research on The Negative Role of Internet Memes in Youth Communication (2025)
Zhang, Y., Zhao, S., & Merritt, K. “Meme-ing” Across Cultures (2025)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

identitetni ifodalash uchun foydalanishadi. Bu tadqiqot memlarni global kommunikatsiyaning bir qismi sifatida ko‘rishga yordam beradi.[5]

2024-yilda chiqarilgan ilmiy ish “toxic memes” deb ataladigan zararli memlarni aniqlash va tushuntirish bo‘yicha ilmiy yondashuvni bayon qiladi. Bu ish memlarni kompyuter modellar yordamida tasniflash, toksiklik darajasini aniqlash va kontentni izohlash borasidagi tadqiqotlarni umumlashtiradi. Bu soha ayniqsa ijtimoiy tarmoqlardagi kontent nazorati va algoritmik filtrlash tizimlari uchun muhim hisoblanadi.[6]

XULOSA

Mazkur tadqiqotda o‘zbek internet makonida keng tarqalgan uch mem namunasi asosida memlarning lingvistik, pragmatik va ijtimoiy funksiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, internet memlari nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki yoshlar nutqiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi zamonaviy til hodisasi hisoblanadi.

Tahlil qilingan memlarda qisqa, sodda va umumlashma xarakterdagi iboralarning qo‘llanishi yoshlar nutqida tayyor qolipli ifodalarning kengayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, kinoya, istehzo va metaforaga asoslangan mem matnlari kundalik og‘zaki muloqotda tez-tez qo‘llanilib, fikrni lo‘nda va ta’sirchan yetkazish vositasiga aylanmoqda. Natijada yoshlar murakkab mazmundagi fikrlarni qisqa va kulgili shaklda ifodalashga intilmoqda.

Shuningdek, memlar yoshlar orasida ijtimoiy stereotiplar va madaniy qarashlarning til orqali qayta ishlab chiqilishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon ochiq tanqid shaklida emas, balki yumor va kinoya orqali amalga oshgani sababli, memlar keng auditoriya tomonidan oson qabul qilinadi va tez tarqaladi. Vizual va verbal elementlarning uyg‘unligi esa memlarning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, internet memlari o‘zbek yoshlar nutqida yangi ifoda usullarini shakllantirib, zamonaviy raqamli diskursning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish nafaqat internet

[5] Delfina Sol Martinez Pandiani va boshqalar. Toxic Memes: A Survey (2024)
[6] Aidos Konyspay va boshqalar. Meme Similarity and Emotion Detection (2025)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tilining rivojlanish qonuniyatlarini, balki yoshlar nutqidagi o‘zgarishlarni aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1.Dawkins, R. (1976). The Selfish Gene. Oxford: Oxford University Press.

2.Shifman, L. (2014). Memes in Digital Culture. Cambridge: MIT Press.

3.Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student Guide. London: Routledge.

4.Androutsopoulos, J. (2015). Networked multilingualism: Some language practices on Facebook and their implications. International Journal of Bilingualism, 19(2), 185–205.

5.Dynel, M. (2016). “I has seen image macros!” Advice animals memes as visual-verbal jokes. International Journal of Communication, 10, 660–688.

6.Herring, S. C. (2013). Discourse in Web 2.0: Familiar, reconfigured, and emergent. The Handbook of Discourse Analysis.

7.Караулов, Ю. Н. (2010). Русский язык и языковая личность. Москва: ЛКИ.

8.Кронгауз, М. А. (2013). Язык интернета. Москва: АСТ.

9.Ахмедов, М., & Раҳимов, Н. (2020). Интернет дискурси ва унинг тилшуносликдаги ўрни. Ўзбек тили ва адабиёти, 3, 45–52.

10.Jo‘raev, B. (2021). Yoshlar nutqida internet tilining o‘rni. Filologiya masalalari, 2, 78–84.